

ShARTNOMA

KBK

Namangan shahar	№0033-M	2022 y. "10" 01. +
-----------------	---------	--------------------

Amaldagi Nizom asosida ish ko'ruvchi, kejinchalik "Yetkazib beruvchi" deb yuritiluvchi "PROTEK MED" MChJ nomidan ish ko'ruvchi **Маҳкамов Е.Н** bir tomondan va amaldagi Ustav asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Haridor" deb yuritiluvchi **Ташлоқ ТУМАН ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ** nomidan byudjet tashkiloti rahbari **A. Tojiboyev** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. ShARTNOMA MAVZUSI

1.1. "Yetkazib beruvchi" mazkur shartnoma bo'yicha "Haridor"ga o'zaro kelishilgan miqdorda va muddatlarda shartnomaning umumiy qiymatidan oshmagan holda (Tibbiy va dori vositalari)ni yetkazib berish. Yetkazib beriladigan tovarlarning shartnoma tuzish vaqtidagi miqdori, narhi va yetkazib berish muddati quyidagicha specifikasiyada belgilangan.

II. ShARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Mazkur shartnomaning bahosi 6000 000. (olti million so'm) so'mni tashkil etadi.

2.2. "Haridor" olinadigan tovarlar uchun amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan, ya'ni 30 foiz avans to'lovini oldindan "Yetkazib beruvchi" hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.3. "Yetkazib beruvchi" tegishli davrda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq belgilangan miqdorda va avans to'lovidan so'ng 15 kun muddat ichida tovarlarni "Haridor"ga yetkazib beradi.

2.4. "Haridor" taqdim etilgan hujjatlarga asosan kolgan 70 foiztulovni 90 kundan ortiq bo'lmagan muddatlarda uzil-kesil hisob-kitob qiladi.

2.5. Yetkazib berilgan tovarlar uchun pul o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. "Haridor"ning ququq va majburiyatlari:

"Yetkazib beruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

"Yetkazib beruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifat, assortimentdagi tovarlarni yetkazib berilishini talab qilish;

3.2. "Yetkazib beruvchi" quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

Yetkazib berilgan tovarlarni uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil qisob qilinishini Haridordan talab qilish;

Tovarlarini mazkur shartnomaga asosan "Haridor" buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda etkazib berish.

IV. ShARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad yetishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Haridor" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yohud tovarlarning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Yetkazib beruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 3 kun oldin habardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Tovarlarini yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq etkazib berilmagan taqdirda "Yetkazib beruvchi" "Haridor"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi,

biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.2. Yetkazib berilgan tovar uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Haridor" "Yetkazib beruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'lajdi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.3. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va tovar etkazib berish muddati kechiktirilishi yoki to'liq etkazib berilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod yetmaydi.

VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal yetish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal yetish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

6.3. Fors-major holati, ya'ni tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar (yong'in, suv toshkini shu kabi yengib bulmaydigan kuchlar) yuz bergan taqdirda majburiyatlar bajarilmaganligi uchun Javobgarlikdan ozod yetiladi.

VII. ShARTNOMANING AMAL QILISHI

7.1. Mazkur shartnoma "Haridor" va "Etkazib beruvchi" tomonidan tasdiqlanib so'ng g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yhat o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr qadar amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'htatiladi.

VIII. YaKUNIY QOIDALAR

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnomani jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qandayo'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir yetilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

IX. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI:

«Yetkazibberuvchi»

«Haridor»

«PROTEK MED» MCHJ

(molyetkazibberuvchinomi)

Manzil: Namangan shahar Orzu MFY,
Ijodkorko'chasi, 11-uy

Tel./faks: (95)303-43-33

X/R: 20208000105139292001

Banknomi: XABTRASTBANK Namangan filiali

MFO: 01060 STIR: 306594017

OKED: 46460

ТОШЛОҚ ТУМАН ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ

(byudjetdan mablag' oluvchi nomi)

Manzil: Тошлоқ тумани тиббиёт бирлашмаси
Тошлоқ ш.часи, А.Навоий кўчаси, 20-уй.
Ш.х.: 100022860228092103051001.

Tel./faks: МҲ: 201186207 ОКОНХ: 91511 Тел: 238 44 29

X/R: Тошлоқ тумани бўйича газначилик бўлинимаси
Х/р: 23402000300100001010

INN: ОКОНХ
Марказий банк Тошкент ш. ХККМ

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachilik bo'limi

G'azna H/R:

Banknomi:

MFO:

G'aznachilik bo'linmasi STIRI:

Rahbar:

(imzo)

Maxkamov E.X

(F.I.Sh)



M.O:

Rahbar:

(imzo)

M.O:



Huquqshunos: Hodjiyev I. Litsenziya NA 00001324.12.2018y.



imzo

«PROTEK MED» МЧЖ билан "Тошлок ТУМАН ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ"
уртасида тузилган 10.01 2022 йилдаги №0033-М сонли шартномага 1 илова

**Етказиб бериладиган маҳсулотларнинг миқдори нархларини
СПЕЦИФИКАЦИЯСИ**

ПП-3953	№	Товарлар номи	Ўлчов бирлиги	Миқ-дори	Нархи	Суммаси
№248	1	Зеркало гинекологическое типа «Куско»	шт	490,00	2 600,00	1 274 000,00
№243	2	Бир маротаба кулланиладиган стерилланган тиббиёт шпатели	шт	1 000,00	650,00	650 000,00
№236	3	Перчатка мед.смотр.лат.н/с	шт	4 100,00	960,00	3 936 000,00
№251	4	Скарфикатор универсальный стерильный однократного применения	упак	1 000,00	140,00	140 000,00
ЖАМИ:						6 000 000,00

Олти миллион сўм 00 тийин

«PROTEK MED» МЧЖ	Тошлок ТУМАН ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ
Манзил - Наманган шаҳар Орзу МФЙ, Ижодкор кучаси, 11-уй	Манзил - Тошлок ш.часи, А.Навоий кучаси, 20-уй.
X/P: 20208000105139292001	X/P: Шх/р: _____
Банк номи ХАБ ТРАСТБАНК Наманган фил.	Банк номи: ИИН: 200186207 СКОНХ: 91511 Тел: 238-44-29
МФО: 01060 ИИН: 306594017 ОКЭД: 46900	Тошлок тумани бўйича газначилик бўлини маси
Тел: (95) 303-43-33	МФО: x/p: 23402000300100001010
	Марказий Банк Тошкент ОҚОНХ КМ
	МФО: 00014 ИИН: 201122919
Рахбар:  Махкамов Э. Х	Рахбар:  А. Тожибоев
М.У. _____ ИМЗО _____ ФИШ _____	М.У. _____ ИМЗО _____ ФИШ _____



«PROTEK MED» МЧК hamda Toshloq tuman Tibbiyot Birlashmasi o'rtasida
4 (to'rt) xil turdagi tibbiy buyumlarini sotib olish to'g'risidagi № 0033-m
shartnomaga

YURIDIK XULOSA

Shartnoma miqdori: 6000000 (olti million so'm)

Toshloq tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti M.Rahimov yuqoridagi shartnoma yuzasidan xuquqiy ekspertiza o'tkazdim. Huquqiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan o'tkazildi.

Shartnomada ko'rsatilgan munosabatlarning amaldagi qonun normalari talablariga mos kelishi, shartnoma shartlarining qonun xujjatlari talablariga mos kelishi, shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonun xujjatlari talablariga mos kelishi huquqiy ekspertizaning predmeti xisoblanadi.

Huquqiy ekspertiza o'tkazilayotgan vaqtda O'zbekiston Respublikasining amalda bo'lgan hamda yuridik xizmat uchun foydalanish mumkin bo'lgan barcha qonun xujjatlari o'rganib chiqildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

Shartnoma ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 6,7,15-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-385-moddalari talablariga mos keladi.

Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 24-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-339-moddalari talablariga mos keladi.

Yuqoridagilarga asosan, mazkur shartnoma qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Toshloq tumani Yuridik xizmat
markazi bosh yuristkonsulti:



M.Rahimov